

EKOLOGIK MUAMMOLAR

Akramov Sherzodbek Ikromjon o'g'li

Qo'qon Davlat Universiteti Ijtimoiy-gumanitar

fanlarni o'qitish (huquq ta'limi) - 70111102

mutahassisligi 1-bosqich magistranti

Sherzodbekakramov002@gmail.com

tel raqam: +998911508502

Annotatsiya: Mazkur maqolada global ekologik muammolar, ularning paydo bo'lish sabablari, oqibatlar va insoniyat uchun xavfli bo'lgan jihatlari o'rganilgan. Atrof-muhitning ifloslanishi, iqlim o'zgarishi, suv resurslarining tanqisligi va kabi muammolar tahlil qilinadi. Maqolada ushbu muammolarni bartaraf etish yo'llari va barqaror rivojlanishga erishish uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlar haqida takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: Ekologik muammolar, ifloslanish, iqlim o'zgarishi, suv resurslari tanqisligi, ozon qatlami, issiqxona samarasi, "yashil makon" umummilliy loyihasi

Annotation: This article explores global environmental problems, their causes, consequences, and the dangers they pose to humanity. It analyzes issues such as environmental pollution, climate change, and water resource scarcity. The article also provides suggestions on ways to address these problems and outlines measures necessary to achieve sustainable development

Keywords: Environmental problems, pollution, climate change, water resource scarcity, ozone layer, greenhouse effect, "Yashil makon" national project

Аннотация: В данной статье исследуются глобальные экологические проблемы, причины их возникновения, последствия и опасные аспекты для человечества. Анализируются такие вопросы, как загрязнение окружающей среды, изменение климата, дефицит водных ресурсов и другие подобные проблемы. В статье также представлены предложения по устранению этих проблем и меры, необходимые для достижения устойчивого развития

Ключевые слова: Экологические проблемы, загрязнение, изменение климата, дефицит водных ресурсов, озоновый слой, парниковый эффект, общенациональный проект «Yashil makon»

KIRISH.

Yer sharining bugungi ko'rinishi o'tgan asrlarga nisbatan misli ko'rilmagan darajada o'zgardi. Ekologik xaf bugungi kunda keng tus olib, yer sharining butun mintaqalarini qamrab oldi. Uning xavfi yadro xavf-hataridan ham dahshatli tus olmoqda. Xususan, global isish, yer ekosistemasining o'zgarishi, cho'llashish,

qurg'oqchilik, ichimlik suvining tanqisligi kabi ekologik muammolar vujudga keldi. Bu muammolarning aksariyat insonning tabiatga aralashuvi natijasidir.

USULLAR VA ADABIYOTLAR TAHLILI.

Maqolada ekologik muammolar bo'yicha olimlarning ilmiy ishlaridan va statistika ma'lumotlaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida ekologik ifloslanish, iqlim o'zgarishi va bioturli turlarning yo'q bo'lishi bilan bog'liq adabiyotlar o'rganildi. Maqola yozishda analitik, qiyosiy va statistik tahlil usullari qo'llanildi. Jumladan, dunyo mamlakatlarida ekologik muammolarga qarshi qabul qilingan chora-tadbirlar o'rganilib, ularning natijasi tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJA

XX asrning 50-yillaridan boshlab havoda Freon gazlarining (xlor, ftor, uglerod) miqdorining ortishi kuzatilmoqda. Bu esa 25 km uzoqlikdagi ozon qatlami (ozonosfera) ni yemira boshladi. Natijada "Ozon tuynugi" hosil bo'ldi. Ozon qatlami quyosh nurlari ta'sirida kislorod azod oksidi va boshqa gazlar ishtirokida ya'ni chaqmoq chaqishi momaqaldiroq, yashinlar natijasida hosil bo'ladi va to'planib boradi. Hozirgi vaqtda Freon gazlaridan keng foydalanish, aviatsiya gazlari hamda atom bombalarini portlatilishi natijasida atmosferaga ko'p miqdorda zararli moddalar va tutunlar chiqarilmoqda. Bu esa ozon qatlamini to'planishiga imkon bermayapti. Aviatsiya va raketa uchirilishi natijasida atmosferaga ko'p miqdorda alyuminiy oksidi chiqarilmoqda. Chiqarilgan alyuminiy oksidi oq kukun ko'rinishida bo'lib quyosh nurlarini yer yuzasiga tushushiga to'sqinlik qiladi va oqibatda quyosh nurlari qaytishi kuzatiladi. Raketalar atmosferani ifloslab qolmay ko'p miqdorda kislorod sarflaydi va ozon qatlamiga ham ta'sir etadi. AQSHning "skaylob" stansiyasining orbitaga chiqargan Saturn-5 raketasi ionosferada kengligi 1800 km "tuynuk" hosil qilib, u 1,5 soatdan so'ng to'lgan. Olimlarning hisob-kitoblariga ko'ra bir vaqtning o'zida Saturn-5 ga o'xshash 125 ta raketa uchirilsa, yer yuzasini o'rab turgan ozon qatlamini yo'q qilib yuborishi, yer yuzasidagi barcha tirik organizmlar nobud bo'lishi mumkin. Bugungi kunda Antarktida va Avstraliyaning quyi hududlaridagi atmosfera havosida ozon tuynugi hosil bo'lib kengayib bormoqda. Bu holatni oldini olish borasida bir qator ishlar olib borilmoqda. 1981-yil 81-mamlakat olimlari mutaxassis va davlat arboblari qabul qilgan "Ozon qatlamini muhofaza qilish Xelsinki Deklaratsiyasi" va 2000-yilga qadar freon gazlaridan ishlab chiqarish mahsulotlarini kamaytirib borish tadbirlari belgilab berildi. Natijada so'ngi yillarda ozon tuynugining maydoni qisqarib bormoqda.

"Issiqxona samarasi" Keyingi yillarda atmosfera tarkibida karbonat angidrid gazlarining ortishi natijasida issiqxona samarasi vujudga keldi. Bunga sabab sanoat korxonalarida yoqilg'i mahsulotlari ayniqsa, toshko'mirdan keng ishlatilishi, transport vositalarida yoqilg'ilardan foydalanilishi, o'rmonlarning kesilishi, o'rmon yong'inlaridir. Bular issiqxona samarasini jadallashuviga olib keldi. Ahvol shu tariqa davom etsa XXI asrga kelib yer yuzasi harorati 1,5-4,5 gradusga ortishi mumkin.

Buning oqibatida iqlimning o'zgarishi, ayniqsa cho'llashish jarayoni kuchayadi. Tabiat zonalari siljiydi, okean va dengizlar sathi ortadi. Muzliklar erishi va hajmi kamayishi kabi hodisalar ro'y beradi.

Chuchuk suv yetishmasligi muammosi. Suvning biosferada roli juda katta. U tiriklik va hayot manbai. Gidrosferada 1,5 mlrd kub kmdan ko'proq suv mavjud bo'lsada, shuning atigi 3% chuchuk suvlaridir. Chuchuk suv zahiralarining asosiy qismi qutbiy muzliklarda to'plangan. Jamiyat rivojlangani sari chuchuk suvga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. Gidrosferaning jami hajmining 3%ini tashkil etgan chuchuk suv iste'molida aholi, sanoat, qishloq xo'jaligi birlamchi rol o'ynaydi. Chuchuk suv yer yuzasi bo'ylab notekis taqsimlangan. Masalan Afrika aholisining 10%i muntazam chuchuk suv bilan ta'minlangan bo'lsa, Yevropada bu ko'rsatkich 95% ni tashkil etadi. Ayniqsa tropik Afrika mamlakatlarida toza ichimlik suv muammosi jiddiy muammo bo'lib turibdi.

Bugungi kunda O'zbekistonda ham bir qancha ekologik muammolar mavjud. Ular "Orol muammosi", cho'llashish, qurg'oqchilik, ichimlik suvining tanqisligi, yashil makonning qisqarishi, havo sifatining yomonlashuvi tobora ortib bormoqda. "Orol muammosi" ham insonning tabiatga aralashuvi natijasida vujudga keldi, global muammoga aylandi. Hozirda kunda qonunlar va huquqiy-normativ hujjatlarga yangicha yondashuv zarurati otgan yillarga nisbatan o'sdi. Natijasida, ekologik muommolarni tariximiz va bugungi kunimizdagi holatini e'tiborga olgan holda o'rganish, tahlil qilish hamda kerakli taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega bo'ldi. So'nggi yillarda ko'plab hududlarda yangi yo'llar, qurilishlar, kommunikatsiyalar uchun daraxtlar kesilayotgani kuzatilmoqda. Bu holat ayrim ruxsatsiz qurilishlar bilan bog'liq bo'lib, ekologik muvozanatga katta putur yetkazmoqda. Misol uchun, 2023-yilda ijtimoiy tarmoqlarda Toshkent shahri, Farg'ona viloyati, Andijon va Qarshi shaharlarida noqonuniy yoki ruxsatsiz daraxt kesilishi bo'yicha ko'plab videolar va murojaatlar tarqaldi. Afsuski, ba'zan bu holatga vakolatli organlar sust reaksiya bildiradi yoki ma'muriy jarima bilan cheklanadi. Daraxt kesilishi havodagi kislorod miqdorini kamaytiradi, chang zarralari va issiqlik orollarining ko'payishiga sabab bo'ladi. Daraxtlar tuproq eroziyasining oldini oladi, qushlar va mayda hayvonlarning yashash joyi hisoblanadi. Daraxt kesilgan har bir hududda nafaqat ekologik, balki sotsial muhit ham izdan chiqadi, odamlarning stressi ortadi, bolalarning nafas yo'llari kasalliklari kuchayadi.

Mamlakatimizda ekologik vaziyatni yaxshilash, transchegaraviy garmisel shamollari va chang-qum bo'ronlarining atrof-muhitga zararli ta'sirlarining oldini olish maqsadida qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'tgan davr mobaynida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida 588 gektar "yashil bog'lar", 662 gektar "yashil jamoat parklari", Buxoro, Nukus, Xiva va Urganch shaharlari atrofida jami 40 km masofada "yashil belbog'"lar barpo etildi. Respublikada ekotizimlarni himoya qilish

va tiklash, ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish va yashil maydonlarni kengaytirish borasida "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirilishi muhim qadam bo'ldi. Ushbu loyiha doirasida yiliga 200 million tup daraxt va buta ko'chatlarini ekish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni amaldagi 8 foizdan 30 foizga oshirish reja qilingan. Hozirda barcha shahar va qishloqlarda daraxt ekish bo'yicha keng ko'lamda ish olib borilayotgani tahsinga sazovor. Shu bilan birga har yili kuz va bahor oylarida ekiladigan daraxtlar parvarishiga, ularning keyingi taqdiriga ham e'tibor qaratilishi lozimligi belgilandi.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan ekologik muammolarning bari antropogen ya'ni inson omili bilan bog'liq. Xo'sh bir nima qilishimiz kerak? Qanday choralar ko'rishimiz zarur? Albatta inson tabiatni ifloslash bilan chegaralanib qolayotganligi yo'q. Uni bartaraf etish chora-tadbirlarini ham amalga oshirmoqda. Ko'pgina davlatlarda ekologik siyosat olib borilmoqda. Bizning davlatimizda ham atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi mustahkam yaxlit qonunchilik bazasi mavjud. Lekin yangi ekologik muammolarning vujudga kelishi zamonaviy qonunchilikni yaratishni taqazo etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining "Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, "Yashil makon" umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 23-noyabrdagi PF-199-son Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 30.11.2024 yildagi 804-sonli "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida amalga oshirilayotgan tadbirlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida Qarori
3. **Gulnora Gulyamova, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Islom**
4. **iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi kafedrasi dotsenti v.b** "Yashil makon" umummilliy loyihasi aholi hayoti sifatini oshirish omili. 7 may 2025-yil
5. A.Sattorov, Q.Allanov, B.Abdumo'minov Global iqlim o'zgarishi, uning oqibatlarini va unga moslashish. Termiz 2019.